Scientific Bulletin of Namangan State University

Volume 2 | Issue 9 Article 25

9-10-2020

# ORIENTALIST ABU NASR AL-FARABI'S VIEWS ON THE PERFECT MAN AND HIS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN SPIRITUALITY

Ilhomjon Ikromjonovich Xudayarov
*NamDU o'qituvchisi*

Follow this and additional works at: https://uzjournals.edu.uz/namdu

Part of the Education Commons

Recommended Citation
Xudayarov, Ilhomjon Ikromjonovich (2020) "ORIENTALIST ABU NASR AL-FARABI'S VIEWS ON THE PERFECT MAN AND HIS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN SPIRITUALITY," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 2 : Iss. 9 , Article 25.
Available at: https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss9/25

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

ORIENTALIST ABU NASR AL-FARABI'S VIEWS ON THE PERFECT MAN AND HIS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN SPIRITUALITY

Cover Page Footnote
???????

Erratum
???????

This article is available in Scientific Bulletin of Namangan State University: https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss9/25

ISSN:2181-0427

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

# НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ АХБОРОТИ

2020 йил 9 сон

исламе главным идеалом является бог и пророки, по которым ориентируется верующие, стремятся подражать их поведение.

Общеизвестно, что в семье дети воспитывается в традиционном идеале родителей, т.е. мальчики берут отцов, а девушки своих матерей. В многодетном семье дети воспитывается в образцах детей старшего по возрасту, девушки своих сестер, девушки видят в супругах своих старших сестер идеал будущих своих избранников. Следует также отметить, изменение эстетических идеалов детей в школьном возрасте, что учителя и педагоги становятся хорошими идеалами подражания.

Следует также отметить, идеал по своей сущности сложный феномен, имеющий своей функции во всех сферах человеческой деятельности, идеалами люди приобретали смысл своей жизни, счастье и покой в повседневности, совершали невозможное в своей жизни, достигли самых высоких результатов в жизни. Таким образом идеал эстетическое отражает целостное совершенное общественное, в котором человек чувствует себя причастным к грандиозным реформам социального прогресса.

Практика показала, что социальный и эстетический идеал является динамичной категорией в своем историческом развитии, связанные социально-культурными тенденциями общественной жизни, Мы допускаем мысль, что развитие эстетического идеала среди молодежи как особой культуры восприятия идеального несет себе огромный потенциал просветительного характера.

Эстетические воспитание ест по своей сущности процесс направленного воздействия на сознание молодежи в целях формирования высшей человеческой чувственности, заданной обществом. Эстетические ресурсы личности: восприятие, эмоции, чувство, вкус, ценности по своей сущности направлены на становление и развитие идеалов личности.

**Список литературы**

1. Джуринский А.Н. История педагогики -М.; Изд. центр «Владос», 1999. 432 с.
2. Культурология. Энциклопедия. В 2-х томах. –Т1. Гл.ред. С.Я. Левит. –М.; Российская политическая энциклопедия. 2007. -1392 с.
3. Лармин О. В. Искусство и молодежь. Эстетические очерки -М.; 1980. —191 с.
4. Мирзиёев Ш.М. Обращение Парламенту Республики Узбекистан// Народное слово. 2017. -22 сентябрь

## SHARQ MUTAFAKKIRI ABU NASR FOROBIYNING KOMIL INSON HAQIDAGI QARASHLARI VA UNING INSON MA'NAVIYATI YUKSALISHIDAGI AHAMIYATI

Xudayarov Ilhomjon Ikromjonovich
NamDU o'qituvchisi

***Annonatsiya:*** *Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning komil inson to'g'risidagi qarashlari va uning inson ma'naviyati yuksalishidagi ahamiyati xususida ayrim mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ta'lim-tarbiya, komil inson falsafiy qarashlar, insonparvarlik g'oyalari, aqliy va axloqiy kamolot, pedagogik qarashlar, ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi, axloqning ikki guruhi.*

# ВЗГЛЯДЫ ВЕЛИКОГО ВОСТОЧНОГО МЫСЛИТЕЛЯ АБУ НАСР ФАРОБИ НА ГАРМОНИЧНОГО ЧЕЛОВЕКА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ

***Аннотация:*** *Данная статья содержит некоторые суждения, взгляды Абу Насра Фароби о развитии духовно – развитой личности или о становлении духовно – развитой личности.*

***Ключевые слова:*** *Воспитание, образование, философские взгляды полноценно – развитого человека, идеи человеколюбия, умственное и духовное совершенство, педагогические взгляды, основные задачи образования, воспитания, 2 группы поведения и дисциплина.*

# ORIENTALIST ABU NASR AL-FARABI'S VIEWS ON THE PERFECT MAN AND HIS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN SPIRITUALITY

***Annotation:*** *This article provides some insights into Abu Nasr al-Farabi's views on the perfect man and his role in the rise of human spirituality.*

***Key words:*** *Education, the philosophical views of the perfect man, the ideas of humanity, intellectual and moral maturity, pedagogical views, the main task of education, the two groups of morality.*

Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug' Talxon Forobiy jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mutafakkir, o'rta Osiyolik faylasuf allomadir. Forobiy 873-yilda Sirdaryoning Forob degan joyida tug'ilgan. Dastlab, Marvda tahsil ko'rgan. Keyin Bog'dodga borib, Abu Bashir Matt ibn Yunusdan yunon tili va falsafasi bo'yicha saboq olgan. Yuxanna ibn Xiylondan mantiq va tabobatni o'rgangan. Yunon faylasuflarining, ayniqsa, Aristotelning asarlarini sinchiklab o'qigan. Islomiy ishlarni ham qunt bilan o'zlashtirgan. Forobiy aniq fanlar, ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga juda qiziqqan. Tarixiy manbalarga ko'ra u Buxoroda bo'lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko'ra falsafiy asar "At-taxliliy" asarini yozadi. Shu asar tufayli u "Muallim as-soniy" (ikkinchi muallim) laqabi bilan mashhur bo'ladi. Olim 70 dan ortiq tillarda so'zlasha olgan. O'z zamonasining yetuk ilm sohibi bo'lgan Forobiyning falsafa, mantiq, psixologiya, musiqa, matematika va boshqalarga oid 160 dan ortiq asarlari ma'lum bo'lib, ularning ko'pi juda keng, hatto dunyo miqyosida shuhrat qozongan.

Forobiy o'zining falsafiy qarashlariga insonga bilim va tarbiya berishni asoslagan. U inson – aqlli mavjudot deyilganda, uning aqlli bo'lishga, layoqatliligi, lekin yomon hatti-harakatlarga ham qobiliyatliligini tushunishini uqtirgan. Insonlarga doimiy bilim va tarbiya berishni zarur deb hisoblagan Forobiy o'zining ideal jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'lgan. Kishilarning diniy mazhabiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat bergan.

Faylasuf olim M.Xayrullaev alloma asarlarini ularning mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga bo'ladi:

1. Falsafaning umumiy muammolariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag'ishlangan asarlar.

2. Insonning bilish faoliyatining falsafiy jihatlariga bag'ishlangan, ya'ni bilishning shakllari, bosqichlari va usullari haqidagi asarlar – mantiqning turli muammolari ham shunga kiradi.

3. Falsafa va boshqa aniq ilmlarning boshlang'ichi, predmeti, mazmuni va tematikasi haqidagi asarlar.

4. Materiyaning miqdoriy, makoniy, hajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan, ya'ni matematika fanlari – arifmetika, geometriya, astronomiya va boshqa musiqaga oid asarlar.

5. Materiyaning hossalarini, turlarini noorganik tabiatning, hayvonlar va insonlar organizmining xususiyatlarini tekshiruvchi, tabiiy fanlar: fizika, kimyo, optika, tibbiyot va boshqalar.

6. Tilshunoslik, poetika, ritorika, husnixat – xattotllikka doir asarlari.

7. Ijtimoiy-siyosiy hayotga, ijtimoiy tuzumning o'ziga xos xususiyatlariga, davlatni boshqarish masalalariga, axloq va uning kategoriyalari, tarbiya masalalariga bag'ishlangan huquqshunoslik, siyosat, etika, pedagogikaga oid asarlari.

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy, falsafiy, axloq, ta'lim-tarbiyaga oid ta'limotidan ma'lumki, uning falsafiy ma'rifiy, ijtimoiy qarashlariga inson muammosi eng muhim muammo sifatida qaraladi. "Ixso al-ulum", "Aql to'g'risida", "Fozil odamlar shahri", "Ideal jamoa haqida", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" va boshqa risolalarida ana shu insonning kamolga etishishida muhim bo'lgan omillarni, maqsad va vazifalarni, ta'lim-tarbiya usullari va uslublarini yoritib bergan.

Abu Nasr Forobiy inson haqiqiy kamolga etishishi uchun avvalo ilmiy bilimlarga ega bo'lishi zarur, deydi. Bunda Inson o'zida ixtiyoriy ravishda aqliy xislatlarni egallashga ehtiyoj sezishga zarur, tarbiyani esa ana shu fazilatlarga inson faqat baxt-saodatga eltuvchi jaoma bo'lganlagina erishadi, deydi. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sabab yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarning bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlanuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning xar biriga yashash va yetuklikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'payadi va aholi yashaydigan qismiga o'rnashadilar".

Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiyaga oid ta'limotining metodologik asosini uning inson to'g'risidagi falsafiy qarashlari tashkil etadi. Alloma odamning fiziologik tuzilishi, psixologiyasi, moddiy va ma'naviy olamini o'rganar ekan, u insondagi qobiliyat va kuchning, ruhiyat va quvvatning, aqliy va so'zlash qobiliyatining boshqa tabiat mavjudotlarida yo'qligi va ana shu ruxiy quvvat jarayoni, ya'ni narsa va hodisalarni bilish, insonga aqliy ta'sir etish, uni ilm ma'rifatga ega etish kabilarni tadqiq etishga alohida diqqat bilan qaraydi.

Forobiy o'zining "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm, bu -

olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni oʻrgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon xaqidagi ilmlarni oʻrganish lozim. Undan soʻng umuman, jonli tabiat – oʻsimlik va hayvonlar haqidagi bilimlar oʻrganiladi.

Forobiy falsafasida insonparvarlik gʻoyalari alohida oʻrin egallagan. Uning fikricha, har qanday feodal zulm urushlar bartarf boʻlgan taqdirda hamma millatlar tinch, ozod, xushchaqchaq, baxtiyorhayot kechirishlari mumkin.

"Bundan keyin biz insonni oʻrganishga kirishamiz va insonning inson boʻlishidan kutilgan maqsad va muddaoni oʻrganamiz va shuning natijasida nima va qanday narsa ekanligini bilib, aniqlab olamiz. Shundan keyin biz insonning hozirgi kamolotga erishuviga sabab boʻlgan narsalarni oʻrganishni boshlaymiz. Bu narsalar esa xayr-ehsonli ishlar, goʻzal insoniy fazilatlar boʻlib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga erishuvidan mahrum qiladigan salbiy xislatlarni ajratib oʻtamiz. Bu salbiy xislatlar xar turli yomon oqibat, odatlar, nuqsonlar va baʼmani xatti-harakatlarning oʻzi bilan tanishib chiqamiz.... Mana shu tanishishga madaniy, yaʼni Madinaga (shaharga yoki jamoaga) oid bilimlar deb nom beramiz. Bu ilm shunday narsalarni oʻrgatuvchi ilmki, uning yordamida shahar xalqlari va shaharlik boʻlmagan xalqlarni oʻz ichiga olgan, yaʼni inson olamiga xos boʻlgan barcha xislatlarni oʻzida umumlashtirgan odamzod jismidagi har turli aʼzolar kabi (umumiy xususiyatlar) kishiga maʼlum boʻladi".

Maʼlumki, Abu Nasr Forobiy inson ruxida, yaʼni uning maʼnaviy hayotida uchraydigan fazilatlarni ikkiga boʻladi: tugʻma fazilatlar va ilm-sanʼat (kasb-hunar), xulq-atvor, xoxish va koʻnikma, malakalar yordamida qoʻlga kiritiladigan (M.Xayrullaev) fazilatlarga ajratadi.

Demak, Alloma insonning kamolga etishida quyidagilarni muhim deb hisoblaydi:

- inson maʼlum jamiyatda, oʻzaro munosabatlar jarayonida kamolga etishadi;
- inson boshqa mavjudotlardan aqliy va ruxiy quvvatlari bilan ustunlikka ega;
- inson oʻz tugʻma qobiliyatini kamolga etishishi uchun kuch sarf etadi, intiladi.

Bu jarayonda inson uchun taʼlim-tarbiya zarur hisoblanadi. Forobiy bunga taʼlim-tarbiyani toʻgʻri yoʻlga qoʻyish orqaligina erishish mumkinligini aytdi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan taʼlim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy kamolotga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini toʻgʻri bilib oladi va hayotda toʻgʻri yoʻl tutadi, boshqalar bilan toʻgʻri munosabatda boʻladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Abu Nasr Forobiy taʼlim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan "komil" insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi.

Abu Nasr Forobiy taʼlim-tarbiyaga birinchi marta taʼrif bergan olim sanaladi. Uning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manba boʻlib xizmat qiladi:

1. Taʼlim – soʻz va organish bilangina amalga oshiriladi.
2. Tarbiya esa, amaliyot, ish, tajriba bilan, yaʼni shu yoʻl bilan amalga oshiriladi, deydi.
3. Har kimki ilm hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, soʻzining ustidan chiqsin, yomon illatlardan saqlanadigan boʻlsin, diyonatli boʻlsin, ilm va axli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

4. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noto'g'ri bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.
5. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. Biroq har bir kishida biron-bir fazilatga yoki qabihlikka mayl, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo'ladi.

Фикрий } fazilat
Аклий }

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqlilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat – intiluvchi quvvatga kirib iffat, shijoat, saxiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir. Forobiyning yuqoridagi ta'lim-tarbiyaga oid konsepsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanish kerak, deb xisoblagan:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanilishi lozim.

Forobiy fanlarni tasniflash bilan birga, ularni qanday o'rganish masalasiga alohida to'xtalgan. Uning fikricha, har bir fanni o'rganuvchi oldin o'zini shu ilmni o'zlashtirishga tayyorlashga, so'ngra haqiqatni izlashi va o'zining salomatligiga, odob-axloqiga jiddiy e'tibor berishi lozim. Kimki, ilm hikmatni o'rganishni istasa, bu ishni yoshligidan boshlashi, salomatligining yaxshi bo'lishiga intilishi, axloqli, odobli bo'lishi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan saqlanishi, hiyonat va makrdan uzoq yurishi kerak. Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari avvalo Ollohni bilishga, insoniyat yaratgan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Forobiyning axloqiy qarashlari muhim ahamiyatga egadir. U qomusiy bilimlar sohibi sifatida bu muammoni ilmiy nuqtai nazardan asoslashga intildi. U o'zining "Ideal shahar kishilarining axloqiy qarashlari", "Rux madaniyati haqida risola" asarlarida insonni komil bo'lishi uchun, avvalo yuksak axloqli bo'lish zarurligini alohida ta'kidlagan.

Professor Y.Jumaboyev o'z tadqiqotlarida Forobiyning axloqiy g'oyalarini har tomonlama o'rganib xulosa sifatida shunday yozadi:

"Axloqiy tarbiya masalalarini va etikaning nazariy muammolarini ishlab chiqish- mutafakkir ijtimoiy qarashlarining eng muhim qismidir".

Forobiyning fikricha, etika insondagi hatti-harakatlarning asosiy normalari va qoidalarini o'rgansa, siyosiy fan butun jamiyatdagi jami a'zolarning odob-axloqini, hatti-harakatini boshqarish haqida bilim beradi.

Forobiy axloqni ikki guruhga bo'lgan edi: ezgulik – yaxshi sifatlarga va yovuzlik – yoki yomon sifatlarga ajratgan. Insonning eng olijanob fazilati baxtga intilishdir. Uning talqinicha, asosiy baxt – shu dunyoda, real hayot sharoitida erishiladigan baxtdir. Chinakam baxtga erishgan kishilardan yuksak axloqiy munosabatni, hamkorlik va o'zaro yordamni, ahil-inoq yashashni talab qiladi.

Forobiy axloqiy fazilatni oʻzlashtirish va shakllantirish masalasini tahlil qilishda Aristotelning gʻoyalariga tayanib quyidagilarni yozgan: "Arastu axloqiy fazilatlarni qanday oʻzlashtirish mumkinligini tushuntiradi: 1. Adolatli, pok, jasur boʻlishga odatlanish shu bilan birga yomon qiliqlardan qutulish uchun ham ma'lum muddat oʻtishi kerak. Bu vaqt davomida inson oʻzining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. 2. Agar odamda tugʻma kuchli gʻurur tuygʻulari boʻlmasa, u xolda oʻsha odam oʻz ruxini mashq ila tarbiyalashi zarur. Arastu aytdiki, tarbiyali odamlar oʻz ruxlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa boʻlish, ortiqcha qaygʻurish kabi holatlardan saqlay bilishi kerak".

Forobiy ijodida insonning baxt haqidagi ta'limoti asosiy oʻrinni egallaydi. Abu Nasr Forobiy "Insonning vujudidagi maqsad – eng oliy baxt-saodatga eltuvchidir; avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvini oʻziga gʻoya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun boʻlishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish, amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. Soʻngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmogʻi lozim" deya ta'kidlagan. Forobiy axloqiy madaniyatning fazilatlaridan hisoblangan sahovat masalasiga alohida e'tibor bergan. U oʻz zamonasidagi adolatsizliklarga befarq boʻlmagan.

Forobiyning ta'kidlashicha, kishilar oʻrtasidagi oʻzaro yordam, doʻstona va qardoshlik munosabatlar, sahovatli boʻlish, ozodlik, baxt, rohat-farogʻat kalitidir.

Sahovatlilik ham komillikning bir belgisidir. Forobiy har bir insonni, kishilarni sahovatli boʻlishini orzu qiladi va ularga sahovatsiz kishilarni qarama-qarshi qoʻyadi.

Forobiy rahbarlar uchun zarur turli fazilatlarni tushuntiradi. Eng birinchi fazilat – ochiq koʻngillik, ikkinchisi – mehr-shafqat, uchinchisi – kelajagi porloqlik, toʻrtinchisi – obroʻ-e'tibor qozonish....

Forobiyning deyarli barcha asarlarida bosh mavzu bu inson va uning baxtga, kamolga erishishi toʻgʻrisidadir. Alloma oʻz asarlarida inson qadr-qimmatini ulugʻlaydi hamda. Uning komil boʻlishi, baxt-saodatga erishishi uchun aqliy, ma'naviy, ahloqiy, ruhiy mezon yaratadi. Uning ta'limotidagi asosiy maqsad bu fozil shahar (al-madina – al-fozila) ya'ni mukammal adolatli shahar hamda fozil shaharni boshqaruvchi va barpo etuvchi fozil odamlardir.

Bundan koʻrinadiki, fozil shahar bu biz qurmoqchi boʻlgan huquqiy demokratik davlat fozil odamlar esa asriy orzuimiz boʻlgan komil insonlardir.

Forobiyning inson kamolotiga doir ahloqiy gʻoyalari asrlar osha oʻz qimmatini saqlab kelmoqda. Uning bebaho fikrlari bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda katta ilmiy manbaa boʻlib xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. Тошкент. Ўзбекистон, 1971 й. 310-бет.

2. Нишонова С. Комил инсон тарбияси. Тошкент "Истиқлол"- 2003 й. 125-бет.

3. Форобий Абу Наср. Рисолалар. Тошкент. Фан, 1975 й. 134-бет.

4. Хайруллаев М.М. Ўтмиш мутафакирлари таҳлим-тарбия хақида. /Халқ педагогикаси инсон камолотининг асоси.

5. Жумабоев Й. Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари. Тошкент, “Ўзбекистон”. 1980 й. 95-бет.

## ИНСОН ОМИЛИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ВАЗИФАСИ

Сайитхонов Акмалхон Ахатжонович
Фарғона давлат университети мустақил изланувчиси

***Аннотация:*** *Мақолада инсон омилини фаоллаштириш жамиятимизда янгича иқтисодий тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш омили эканлиги, мазкур жараёнда тафаккур ва ҳаракатнинг ўзаро уйғунлиги, табиий ва ижтимоий жиҳатларнинг яхлитлиги, ижтимоий-иқтисодий тараққиётдаги тадбиркорлар фаоллигини оширишнинг назарий ва амалий аҳамияти тадқиқ қилинган.*

***Калит сўзлар:*** *инсон омили, фуқаролик жамияти, тадбиркорлик фаолияти, тадбиркорлик маданияти, бозор иқтисодиёти, инсон тафаккури, тадбиркор шахс, иқтисодий маданият.*

## АКТИВИЗАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА-СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ЗАДАЧА РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Сайитханов Акмалхан Ахатжанович
Ферганский государственный университет свободный исследователь

***Аннотация:*** *В статье исследовано, что активизация человеческого фактора является фактором формирования и развития нового экономического мышления в обществе, гармония мышления и движения, целостность природных и социальных аспектов, теоретическое и практическое значение повышения активности предпринимателей в социально-экономическом развитии.*

***Ключевые слова:*** *человеческий фактор, гражданское общество, предпринимательская деятельность, предпринимательская культура, рыночная экономика, человеческое мышление, предпринимательская личность, экономическая культура.*

## ACTIVATING THE HUMAN FACTOR – THE STRATEGIC TASK OF DEVELOPING ENTREPRENEURIAL CULTURE

Sayitkhanov Akmalhan
Fergana state University free researcher

13 Шўрланишли шароитда порлоқ – 4 ғўза навига микро-1 ва ризоком препаратларининг таъсирини ўрганиш
Маматқулова Г. Ф, Камбурова В.С, Маматкулова Ш Х, Дарманов М. М ................... 82
14 Биологик ресурслардан оқилона фойдаланиш мониторинги
Тўрабоев А,Н, Қирйигитов Х. Б ........................................................................ 88
15 Айдар-арнасой кўллар тизими тузкон кўлида орол чавоқбалиғининг (*rutilus rutilus aralensis*) морфоэкологик хусусиятлари
Намозов С.М ........................................................................................ 92
16 Роль водорослей в очистке вод
Муминова Р.Н, Махкамов Г.М, Рузиматов Р.Е.................................................. 97
17 Jizzax shahrida manzarali butalarning tur xilma-xilligi va etishtirish istiqbollari
Ishanqulova D.U, Haydarov X.Q ......................................................................... 101
18 Биоэкологические особенности и практическое значение видов эфедры в Узбекистане
Муминов Д. Я, Хайдаров Х К, Мукимов Т.Х, Норкулов М. М, Джумаева З.У........... 104
19 Зирабулоқ тоғлари карабидофаунаси (coleoptera: carabidae) нинг эколого-фаунистик таҳлили
Халимов Ф.З, Сайфиддинов Х.З, Маманов С.С.................................................. 111
20 Fuzarium *oxysporum* ва fuzarium *poae* таъсирида бугдойнинг биологик белгилари ўртасида коррелятив боғланишлар ва детерминация
Шапулатов Ў. М, Кулиев Т. Х, Қўшиев Ҳ.Ҳ, Шапулатов У.М................................ 117
21 Такрорий экилган қанд лавлагини ривожланишига азотли ўгитлар шакл ва меёрлари таъсири
Сулаймонов И.Ж., Эргашев Д.Т........................................................................ 123
22 Жанубий-ғарбий қизилқум ўсимликларини ўрганилиши хусусида
Эсанов Ҳ.Қ .............................................................................................. 127

## 09.00.00 ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
## ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ
## PHILOSOPHICAL SCIENCES

23 Scientific results obtained on the topic "modernization and integration of national culture in the context of globalization"
Farxodjonova N.F ........................................................................................ 138
24 Эстетический идеал – идея созидания
Халилов Р.Р ................................................................................................ 144
25 Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning komil inson haqidagi qarashlari va uning inson ma'naviyati yuksalishidagi ahamiyati
Xudayarov I.I .............................................................................................. 147
26 Инсон омилини фаоллаштириш – тадбиркорлик маданиятни ривожлантиришнинг стратегик вазифаси
Сайитхонов А.А ........................................................................................ 153
27 Постмодерн дунёда илмий ва диний қадриятларга муносабат ҳамда унинг диалектик асослари
Қамбаров А А ............................................................................................ 158